

LIMON O‘SIMLIGIDA UCHRAYDIGAN ZARARKUNANDALARNING TUR TARKIBI VA UCHRASH DARAJASI

Xolliyev Asamiddin To‘rayevich

ToshDAU, O‘simliklar himoyasi va karantini kafedrasini mudiri, q.x.f.d.

<https://orcid.org/0009-0007-5300-0062>

Niyozqulov Bekmurod Xonali o‘g‘li

<https://orcid.org/0009-0006-8001-6679>

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada limon o‘simligi agrobiotsenozida o‘rgimchakkana, qizil tusli sitrus kanasi, sitrus inli kuyasi, sitrus oqqanoti. hamda shaftoli yoki issiqxona yashil shirasi ko‘p miqdorda, issiqxona oqqanoti hamda akatsiya shirasi o‘rtacha miqdorda uchrashi va zarar keltirishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Limon o‘simligi, zararkunandalar, uchrashi, zarari, tarqalishi.

Аннотация. В данной статье представлена информация о встречаемости и наносимом ущербе различным вредителям в агробиоценозе лимонного растения, включая паутинового клеща, красного цитрусового клеща, цитрусовую минирующую моль, цитрусовую белокрылку, а также персиковую или тепличную зеленую тлю в большом количестве и тепличную белокрылку и акациевую тлю в умеренном количестве.

Ключевые слова: лимонное растение, вредители, встречаемость, ущерб, распространение.

Abstract. This article provides information on the occurrence and damage caused by various pests in the agrobiocenosis of the lemon plant, including the spider mite, red citrus mite, citrus leaf miner, citrus whitefly, as well as the peach or greenhouse green aphid in high numbers, and the greenhouse whitefly and acacia aphid in moderate numbers.

Keywords: Lemon plant, pests, occurrence, damage, distribution.

Kirish. So‘nggi yillarda respublikada sitrus o‘simliklarni etishtirish, xorijdan keltirilgan yangi navlarni introduksiya qilish, ularning maydonini kengaytirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini ko‘paytirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, respublikada limonchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, ilg‘or va zamonaviy resurs tejoychi texnologiyalarni qo‘llash asosida yuqori sifatli sanoatbop va eksportbop limon yetishtirish hajmini oshirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini keng joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-fevraldagi “Limonchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4610-son qarori qabul qilindi.

Sitrus o‘simliklarining mevasi tarkibida ko‘p miqdorda vitaminlar, mineral moddalar, organik kislotalar hamda inson

organizmi uchun zarur bo‘lgan davolovchi ozuqa moddalari mavjud. Jumladan, O‘zbekistonda sitrus o‘simliklaridan eng ko‘p yetishtiriladigani limon bo‘lib, u eng qimmatligi, shifobaxsh va tetiklashtiruvchi mevalardan biridir. Mevasining tarkibida 2% ga yaqin shakar, 6-8% turli kislotalar (asosan limon kislotasi), 1% dan ko‘proq pektin moddalari, 0,5% ga yaqin har xil mineral tuzlar, 60-90 mg S vitamini, ma‘lum miqdorda A, V₁, V₂, RR vitaminlar uchraydi. Ushbu o‘simlikda uchraydigan zararkunandalarni sonini keskin kamaytirish va hosillarini to‘liq saqlab qolish bugungi kunda dolzarb muammolardan bo‘lib hisoblanadi.

Limon o‘simligiga zarar keltirayotgan zararkunandalarning tur tarkibi, bioekologik rivojlanish xususiyatlari, tarqalish areali va zarar keltirish darajasini o‘rganish asosida ularga qarshi himoya qilish choralarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etish borasida olib borilayotgan ilmiy-izlanishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

1-jadval.

Limon o‘simligida uchraydigan zararkunandalarning tur tarkibi va uchrash darajasi
Toshkent viloyati Toshkent tumani Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti, 2023-2024 yy

№	Zararkunanda turlari	Uchrashi
1.	O‘rgimchakkana - <i>Tetranychus urticae</i> Koch.	+++
2.	Qizil tusli sitrus kanasi - <i>Paratetranychus citri</i> Mc.G.	+++
3.	Sitrus inli kuyasi - <i>Phyllocnistis citrella</i> Stainton.	+++
4.	Sitrus oqqanoti - <i>Dialeurodes citri</i> Ashmead.	+++
5.	Issiqxona oqqanoti - <i>Trialeurodes vaporariorum</i> Westw.	++
6.	Akatsiya shirasi - <i>Aphis crassivora</i> Koch.	++
7.	Shaftoli yoki issiqxona yashil shirasi - <i>Myzodes persicae</i> Sulz.	+++

Izoh: - uchramadi, + kam sonda uchradi, ++ o‘rtacha miqdorda uchradi, +++ ko‘p sonda uchradi.

Tadqiqot joyi, ob‘yekti va usullari. Toshkent viloyati Toshkent tumani Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli issiqxonalarda yetishtirilayotgan limon o‘simligi biotsenozida uchraydigan zararkunandalarning tur tarkibi va uchrash darajasini aniqlash maqsadida yo‘nalishli kuzatuv ishlari olib borildi.

Natijalar va munozara. Olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 7 ta turdagi zararkunandalar uchrashi kuzatildi. Uchragan zararkunandalar orasida o‘rgimchakkana - *Tetranychus urticae* Koch., qizil tusli sitrus kanasi - *Paratetranychus citri* Mc.G., sitrus inli kuyasi - *Phyllocnistis citrella* Stainton., sitrus oqqanoti - *Dialeurodes citri* Ashmead. va shaftoli yoki issiqxona yashil shirasi - *Myzodes persicae* Sulz ko‘p miqdorda uchrab, o‘simlikning turli rivojlanish fazalarida keltiradigan zarari bilan iqtisodiy ahamiyatga

ega ekanligi kuzatildi (1-jadval).

Issiqxona oqqanoti - *Trialeurodes vaporariorum* Westw. va akatsiya shirasi - *Aphis crassivora* Koch. o‘rtacha miqdorda uchrashi va zarar keltirishi aniqlandi.

Xulosa. Limon o‘simligi agrobiotsenozida 7 ta turdagi zararkunadalar uchrashi kuzatildi. Kuzatilgan zararkunandalar orasidan o‘rgimchakkana, qizil tusli sitrus kanasi, sitrus inli kuyasi, sitrus oqqanoti. hamda shaftoli yoki issiqxona yashil shirasi kabilar ko‘p miqdorda uchrab, o‘simlikning turli rivojlanish fazalarida keltiradigan zarari bilan iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu zararkunandalarga qarshi kurashda belgilangan muddatlarda turli kimyoviy sinfga mansub, ta’sir qiluvchi moddasi abamektin, propargit, asetamiprid, tiometaksam, sipermetrin va lyambda-sigalotrin bo‘lgan preparatlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бей-Биенко, Г.Я. Общая энтомология. – Москва: Высшая школа, 1966. - 496 с.
2. Васильев В.П., Лившиц И.З. Вредители плодовых культур. – Москва: Колос, 1984.– 398 с.
3. Фасулати К.К. Экология и хозяйственное значение насекомых. – Л., 1961. - 231 с.
4. Корчагин В.Н. Защита растений от вредителей и болезней в садах и овоще-огородных участках. Москва: Агропромиздат, 1987. – 317 с.
5. Хўжаев Ш.Т. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган ҳимоя қилиш тизимининг асослари (IV нашр). - Тошкент: Янги нашр, 2019. - 375 б.